

HAMID OLIMJON TALQINIDA ALISHER NAVOIYNING INSONIYLIK FAZILATLARI

Xudoyberdiyeva Muxlisa,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDU

Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Hamid Olimjonning ilmiy-tanqidiy qarashlari asosida mutafakkir Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodidagi insoniylik, gumanizm, sahovat hamda vafo kabi yuksak axloqiy fazilatlarining yoritilishi tadqiq etiladi. Tadqiqotda Alisher Navoiy ijodidagi yuksak gumanistik umumlashmalarning uning real hayotiy amallari bilan uyg'unligi o'sha davr tarixiy manbalari prizmasida ochib berilgan. Maqolada Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq" hamda Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlari tahlili orqali ulug' shoirning insonparvarlik qiyofasi matnii va qiyosiy usullarda ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, insoniylik fazilatlarini, gumanizm, sahovat, vafo, Makorim ul-axloq, Tazkirat ush-shuaro, Mahbub ul-qulub, komil inson, so'z va amal birligi.

Abstract. This article examines the illumination of human virtues, such as humanity, humanism, generosity, and loyalty, in the personality and works of Alisher Navoi, based on Hamid Olimjon's critical views in Navoi studies. The author reveals the harmony between the philosophical generalizations in Alisher Navoi's works and his real-life deeds based on historical sources of that period. Through the analysis of Davlatshoh Samarqandiy's "Tazkirat ush-shuaro", Ghiyosiddin Khondamir's "Makarim ul-akhlaq" and Navoi's "Mahbub ul-qulub", the humanitarian image of the great poet is scientifically substantiated.

Keywords: Alisher Navoi, Hamid Olimjon, human virtues, humanism, generosity, loyalty, Makorim ul-akhlaq, Tazkirat ush-shuaro, Mahbub ul-qulub, perfect man, unity of word and deed.

Аннотация. В данной статье на основе научно-критических взглядов известного литературоведа Хамида Олимджана исследуется освещение таких высоких моральных качеств, как человечность, гуманизм, щедрость и верность в личности и творчестве мыслителя Алишера Навои. В исследовании через призму исторических источников того периода раскрывается гармония между высокими гуманистическими обобщениями в творчестве Алишера Навои и его реальными жизненными поступками. На основе анализа произведений Давлатшаха Самарканди «Тазкират уш-шуаро», Гиясиддина Хондамира «Макарим ул-ахлоқ» и собственного дидактического труда Навои «Махбуб ул-кулуб» текстологическими и сравнительными методами научно обоснован гуманистический облик великого поэта.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хамид Олимджан, человеческие качества, гуманизм, щедрость, верность, Макарим ул-ахлоқ, Тазкират уш-шуаро, Махбуб ул-кулуб, совершенный человек, единство слова и дела.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida Alisher Navoiy siymosi va uning boy merosi har doim tadqiqotlar markazida bo'lib kelgan. Biroq, yigirmanchi asrning o'rtalariga kelib, Navoiy ijodini yangicha ijtimoiy-siyosiy va insonparvarlik prizmasi orqali yoritish zarurati tug'ildi. Bu mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan yirik olim va shoir Hamid Olimjon bo'ldi. U o'zining Navoiyga bag'ishlangan tadqiqotlarida Alisher Navoiy merosini o'rganishda yangi bir bosqichni boshlab berdi. Uning 1940-yillarda yozgan "Navoiyning hayoti va ijodi haqida", "Navoiy va bizning davr" kabi maqolalarida shoir siymosi nafaqat san'atkor, balki yuksak axloqiy fazilatlar sohibi — Inson sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyatini yangicha mafkuraviy va ilmiy mezonlar asosida kashf etish davri boshlandi. Bu yo‘nalishda akademik olimlar I.Sulton, V.Abdullayev, A.Hayitmetov, N.Karimov va S.G‘aniyeva kabi yirik tadqiqotchilar Navoiy gumanizmini uning she‘riy asarlari va “Xamsa” dostonlari kesimida chuqur o‘rgandilar. Biroq, Navoiy ijodidagi olijanob falsafiy prinsiplarning uning real hayotiy va ijtimoiy faoliyati bilan qay darajada mutanosib ekanligini yaxlit kontsepsiya sifatida o‘rganish masalasi ma‘lum ma‘noda ochiq qolayotgan edi. Aynan XX asrning 40-yillarida Hamid Olimjon o‘zining ilmiy-tanqidiy maqolalari orqali navoiyshunoslikda yangi, tahliliy-biografik bir bosqichni boshlab berdi. Hamid Olimjon an‘anaviy quruq bayonchilik va balandparvoz tavsiflardan voz kechib, Navoiy siymosini tarixiy faktlar (Xondamir va Samarqandiy) hamda shoirning falsafiy asari (“Mahbub ul-qulub”) sintezi asosida tadqiq etdi. Olim o‘z qarashlarida birinchi marta Navoiy gumanizmini shunchaki estetik ideal emas, balki jamiyat moddiy poydevorini (300 dan ortiq binolar qurilishi va vaqf tizimi) yangilashga qaratilgan “amaliy insonparvarlik maktabi” sifatida baholadi. Mazkur tadqiqotimiz aynan Hamid Olimjon ilgari surgan ana shu falsafiy-biografik birlik kontsepsiyasini matniy va qiyosiy tahlillar orqali yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, ya‘ni Hamid Olimjon tadqiqotlarida Navoiy insoniylik qiyofasining ochib berilishini o‘rganish jarayonida adabiyotshunoslikning bir-birini to‘ldiruvchi tizimli metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, qiyosiy-tarixiy metod asosida XV asr temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy muhiti, feodal tuzum ziddiyatlari hamda o‘sha davr manbalari bo‘lmish Xondamir va Samarqandiy qaydlari Hamid Olimjonning XX asr o‘rtalarida shakllangan ilmiy-metodologik qarashlari bilan qiyosiy ravishda o‘rganilib, bu usul Navoiy fazilatlarining davrlararo qadrlanish poydevorini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, biografik va tekstologik tahlil metodi orqali Alisher Navoiyning shaxsiy hayot yo‘li, sahovati, kamtarligi va do‘stlikka sadoqatiga oid tarixiy guvohliklar hamda “Mahbub ul-qulub” asaridagi uning shaxsiy vasiyat-xarakteridagi iqtiboslari matniy jihatdan tahlil etilib, shoir hayotidagi fikr va amal birligi, so‘z va hayot mutanosibligi aynan manbalarni o‘zaro qiyoslash orqali dalillandi.

Tahlil va natijalar. Hamid Olimjon Navoiyning insoniylik fazilatlarini shunchaki maqtov emas, balki aniq tarixiy manbalar va shoirning o‘z asarlari asosida isbotlab berdi. Alisher Navoiy ijodida inson masalasi markaziy o‘rin tutadi. Shoir asarlarida inson nafaqat muhabbat va ishq timsoli, balki jamiyatning faol a‘zosi, ma‘naviy-axloqiy mas‘uliyat egasi sifatida talqin etiladi. Navoiy badiiy tafakkurida insoniylik tushunchasi mehr-shafqat, adolat, halollik, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi fazilatlar bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi. Shoirning epik va lirik merosida komil inson g‘oyasi asosiy o‘rin egallaydi. Bu ideal obrazda shaxsning ichki ma‘naviy kamoloti bilan uning jamiyat oldidagi burchi o‘zaro uyg‘unlashadi. Navoiy nazarida insonning qadr-qimmatini uning nasl-nasabida yoki

mansabida emas, balki axloqiy pokligi, ilmga intilishi va xalq manfaatiga xizmat qilish darajasida namoyon bo'ladi. Uning ijodiy merosi faqat o'z zamonasi doirasida emas, balki bugungi davr ma'naviy hayotida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari insoniyat tafakkuri va ruhiy kamoloti uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shoir badiiy qarashlarida insonparvarlik tamoyillari yetakchi o'rinni egallaydi. Navoiy insonni mavjudotlar ichida eng ulug' i sifatida e'tirof etib, uning ma'naviy yetuklikka erishishini asosiy maqsad deb biladi. Shu bois uning asarlarida adolat, saxovat, ilmga intilish, mehr-shafqat, halollik va sadoqat kabi fazilatlar insonparvarlikning muhim ifodasi sifatida yuksak darajada madh etiladi. Alisher Navoiyning ko'plab asarlarida, jumladan, "Mahbub ul-qulub" asarida ilgari surilgan axloqiy qarashlar tahlil qilinganda, unda insonni bezovchi eng muhim fazilatlar — saxovat, mehr-shafqat, muloyimlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarlik va tavoze' kabi xislatlar yuksak qadrlanishi ko'zga tashlanadi. Aksincha, kibr-havo, dangasalik, buzuqlik, yolg'on, hiyla-nayrang, jaholat va ochko'zlik singari illatlar mutafakkir tomonidan insoniylik mohiyatiga zid holatlar sifatida baholanadi. Asarda muallif o'zining ko'p yillik hayotiy tajribasi va kuzatuvlari asosida shakllangan xulosalarini o'ziga xos, teran va mustaqil fikrlar vositasida bayon etadi. Hamid Olimjon o'z tadqiqotlarida Navoiyning zamondoshlari bergan ma'lumotlarga ham tayangan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida Navoiyning insoniyligini uning hokimiyat va boylikka bo'lgan munosabati orqali yoritadi.

Samarqandiy yozadi: "Amir Alisher shunday zot ediki, uning barcha himmati bechoralar ahvolini yaxshilash va ilm ahliga g'amxo'rlik qilishga qaratilgan edi. U dunyo talabida emas, balki oxirat va yaxshi nom qoldirish ishq bilan yashadi" [1:184]. Ushbu parcha Alisher Navoiy shaxsiyatining ma'naviy-axloqiy qiyofasini, uning davlat arbobi sifatidagi bosh mezoni va insoniylik falsafasini ochib beruvchi eng fundamental iqtiboslardan biridir. Hamid Olimjon ham o'z tadqiqotlarida Navoiyning ulug'ligini feodal tuzum sharoitida mana shunday yuksak axloqiy tushunchalarga amal qilgani bilan isbotlaydi. Feodalizm davrida saroy a'yonlari va vazirlarning asosiy maqsadi ko'proq boylik orttirish, o'z ta'sir doirasini kengaytirish va sulton ko'ziga yaxshi ko'rinish bo'lgan. Biroq Navoiy o'ziga berilgan cheksiz siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarni mutlaqo boshqa tomonga yo'naltirdi. Navoiy madaniyat va ilm-fanning rivojlanishini millat va mamlakatning yashab qolish sharti deb hisoblagan. "Mahbub ul-qulub" da ham Navoiy olimlar va ma'rifat ahliga eng yuksak bahoni beradi. Davlatshoh Samarqandiy o'z asarida Navoiyning bu fazilatini keltirar ekan, o'zi ham bir ijodkor sifatida Navoiyning soyasida ko'plab san'at ahlining hayoti saqlanib qolganini e'tirof etadi. Hamid Olimjon o'zining Navoiy haqidagi maqolalarida aynan Davlatshoh Samarqandiyning mana shu guvohligiga tayanib, feodalizm davri muhitini tahlil qiladi. Hamid Olimjon yozadiki, Navoiy yashagan davr qonli urushlar, taxt talashishlar va shafqatsiz feodal ekspluatatsiyasi davri edi. Shunday qabih va og'ir muhitda Alisher Navoiy kabi yuksak amaldorning "dunyo talabida

bo'lmay", o'z xalqining g'ami bilan yashashi insoniyat tarixidagi mislsiz ma'naviy jasoratdir.

Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari Hamid Olimjon uchun Navoiyning hayotiy axloqini ochib beruvchi eng muhim hujjat bo'lib xizmat qilgan. Maqolalarda Navoiyning o'z mablag'lari hisobidan qurdirgan 300 dan ortiq jamoat binolari (madrasa, hammom, ko'prik, shifoxona) uning saxovat fazilatining isboti sifatida keltiriladi. Xondamir keltirgan bir fakt Navoiyning kishilik fazilatini yorqin ko'rsatadi: "Ul hazrat (Navoiy) o'z yerlaridan keladigan daromadning deyarli barchasini vaqf ishlariga va muhojirlarga sarf etar edi. Hattoki, o'ziga tegishli kiyim-kechaklarni ham ehtiyojmandlarga ulashib yuborgan hollar ko'p bo'lgan". [2:74] Navoiy o'z boyligini shunchaki tarqatib yubormagan, balki jamiyatning uzoq muddatli poydevori uchun sarflagan. Vaqf mulklari hisobidan madrasalar (bepul ta'lim), shifoxonalar (bepul tibbiy yordam), rabot va ko'priklar qurilgan va ularning faoliyati doimiy ta'minlangan. Bu esa Navoiy insonparvarligining tizimli va uzoqni ko'zlagan strategiya bo'lganini ko'rsatadi. O'sha davr sharoitida yirik yer egalari (mulkdorlar) dehqonlar mehnatini ekspluatatsiya qilib, o'z hashamatlari uchun mablag' to'plagan bir paytda, Navoiy o'z ulushini jamiyatning ijtimoiy muvozanatini tiklashga yo'naltirgan. Hamid Olimjon bu borada shunday xulosa qiladi: "Navoiyning insonparvarligi shunchaki falsafiy nazariya emas, balki pishiq g'isht va sadoqatli mehnat bilan qurilgan real haqiqatdir" [3:128]. Hamid Olimjon Navoiyni shunchaki pul beruvchi boy emas, balki qurilishlarga shaxsan bosh-qosh bo'lgan, me'morlar bilan birga ishlagan mehnatkash inson sifatida ko'rsatadi. Bu esa uning xalqqa va o'z g'oyalariga bo'lgan cheksiz sadoqatining isbotidir. Agar Xondamir Navoiyning amallarini yozgan bo'lsa, Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida bu amallarning falsafiy ildizlarini bayon etgan. Hamid Olimjon Navoiy ijodini tahlil etar ekan, shoirning inson haqidagi qarashlarini mehnat, burch, fidoyilik va xalqparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda sharhlaydi. Uning "Mehnatni kuylash" maqolasida Navoiy muhabbat mavzusini kengaytirib, shaxs erkinligi, do'stlik, vatanparvarlik va jamiyat oldidagi mas'uliyat masalalarini ham shu doiraga kiritadi. Bu hol shoir tafakkurida insonni nafaqat hissiy mavjudot, balki ijtimoiy mas'uliyat egasi sifatida talqin etilganini ko'rsatadi. Navoiy dehqon mehnatini butun jamiyat hayotining tayanchi sifatida baholaydi. Mahbub ul-qulub asarida dehqon haqida shunday deyiladi:

"Dehqonki dona sochar, yerini yormoq bila rizq yo'lin ochar". [4:27]

Bu satrlar shoirning mehnatni hayot manbai sifatida e'tirof etganini ko'rsatadi. Demak, insoniylik fazilati, Navoiy talqinida, avvalo, halol mehnat va jamiyatga foyda keltirish bilan belgilanadi. Asarda Navoiy inson qadrini uning foydali mehnatiga qarab belgilaydi:

"Kishi xalqqa naf' yetkurmasa — ul odam emas va har kimningki dardi yo'q — ul odamiy emas".

Ushbu iqtibos orqali Hamid Olimjon Navoiyning "Inson" tushunchasiga bergan ta'rifini chuqurlashtiradi. Shoir nazarida, inson bo'lish uchun faqat qaddi-qomat kifoya qilmaydi, balki o'zgalar dardi bilan yashash (empatiya) asosiy shartdir. Hamid Olimjon o'zining 10 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" (5-jild)ga kiritilgan tadqiqotlarida Navoiyning ushbu konsepsiyasini feodal tuzum va individualizm (xudbinlik) mafkurasiga qarshi qaratilgan buyuk manifest sifatida baholaydi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub"dagi ushbu hikmati insoniy komillikning formulasi hisoblanadi. Hamid Olimjon ushbu iqtibosni tahlil qilar ekan, bizga Navoiy dunyoqarashining fundamental qoidasini ochib beradi: Insonlik darajasi uning mansabi yoki boyligi bilan emas, balki qanchalik darajada o'zgalar dardi bilan og'riy olishi va xalqqa qanchalik naf' keltira olishi bilan o'lchanadi. Bu tahlil maqolada Navoiyning falsafiy-axloqiy qarashlarini eng yuqori nuqtaga olib chiquvchi, uning gumanizmini nazariy jihatdan asoslovchi eng muhim qism bo'lib xizmat qiladi. Hamid Olimjon Navoiy ijodida do'stlik g'oyasiga ham alohida baho beradi. Uning maqolalarida Navoiy va Jomiy o'rtasidagi do'stlikni "ma'naviy birodarlikning cho'qqisi" deb ta'riflaydi. Jomiy va Navoiy o'rtasidagi aloqa faqatgina zamondoshlik munosabati emas edi. Ular tasavvufiy qarashlarda, adabiy ideallarda va ijtimoiy-siyosiy prinsiplarda butunlay hamfikir edilar. Navoiy Jomiyni o'ziga pir, ustoz deb bilsa-da, Jomiy ham Navoiyning fikrlarini, uning turkiy tildagi buyuk g'oyalarini yuksak qadrlagan va unga asarlar bag'ishlagan. "Tazkirat ush-shuaro"da Samarqandiy bu ikki daho o'rtasidagi hurmatni shunday tasvirlaydi: "Mavlono Jomiy va Amir Alisher bir-birlariga shunday bog'langan edilarki, go'yo bir tanada ikki jon kabi edilar".

Navoiy do'stlikni vafosiz tasavvur etmaydi:

"Vafosiz kishi — mevasiz daraxt kabidir" Daraxtning tabiati, borliqdan maqsadi — meva berishdir. Meva bermaydigan daraxt faqatgina zaminni band qilib turadigan, soyasidan boshqa foydasi yo'q yog'ochga aylanadi. Navoiy insonni ham shunday tabiat qonuniga o'xshatadi. Insonning mevasi — uning sadoqati, vafosi, bergan va'dasida turishi va qiyin damda do'stini tashlab ketmasligidir. Vafosiz odam o'z vazifasini bajarmagan mevasiz daraxt kabi jamiyat uchun keraksiz, ma'naviy qashshoq mavjudotdir.

Xulosa. Hamid Olimjon Navoiy shaxsiyatini o'rganish orqali o'zbek xalqining ma'naviy genofondini kashf etdi. Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy kabi tarixchilarning guvohliklari va "Mahbub ul-qulub"dagi hikmatlar uyg'unligi shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy yozgan asarlari kabi yashagan nodir siymodir. Hamid Olimjon aytganidek: "Navoiy — bizning o'tmishimiz emas, Navoiy — bizning kelajagimizdir". Bu fikr Navoiy merosining vaqt va makon chegaralaridan baland turuvchi abadiyat ramzi ekanini anglatadi. Komil inson g'oyasi, millatlararo do'stlik (Jomiy bilan munosabatlardagi vafo), adolatli ijtimoiy tuzum va har bir shaxsning o'zgalar dardi (empatiya) bilan yashashi kabi Navoiy ilgari surgan prinsiplar bugungi huquqiy-demokratik jamiyat va ma'rifatli avlod qurishning bosh mezonidir. Shu ma'noda, Navoiy ko'rsatgan insoniylik saboqlari ortda

qolgan tarix emas, balki millatimiz hamisha intilishi va erishishi lozim bo'lgan oliy ma'naviy kelajak manzildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro (Shoirlar bo'stoni). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1981.
2. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
3. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. 5-jild: Tadqiqot va maqolalar. – Toshkent: Fan, 1982.
4. Alisher Navoiy. Mahub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.

